

O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi kimyo sanoat mahsulotlarining 6-oktabr sanasidagi savdo yakunlari

// 06 October 2022 yil

<https://special.uzkmyosanoat.uz/oz/press/news/birja20221006>



"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi o'z savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan kimyo mahsulotlari savdosining 2022-yil 6-oktabr sanasidagi yakuni bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etadi.

Joriy yilning 6-oktabr kuni "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasи ochiq birja savdolari orqali 6711 tonna 23109,6 mln. so'mlik mineral o'g'itlar

sotildi. Bir kun oldin bu ko'rsatkich yuqori bo'lgan, ya'ni 5-oktabr kuni 24385,2 mln. so'mlik 7385 tonna mineral o'g'itlar sotilgan.

Birja savdolariga tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan ammiakli selitra, karbamid, sulfat ammoniy, ammosof, PS-Agro, kaliyli o'g'itlar, superfosfat azot-fosforli o'g'it kabi mahsulotlar qo'yildi. Savdoga qo'yilgan mineral o'g'itlardan karbamid eng ko'p sotilgan mahsulot bo'lib, sotuvning 42,0 foizini tashkil etdi.

Shuningdek, "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan mineral o'g'itlardan tashqari bugungi kun sanoatida keng qo'llanilayotgan PVX, kaustik soda, formalin, natriy gipoxlorid, kalsinasiyalangan soda, azot kislotasi va suyuq kislorod kabi bir qator kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Ular ham doimiy ravishda birja savdolariga qo'yib boriladi. 6-oktabr kuni jami 3753,6 mln. so'mlik boshqa turdag'i kimyo mahsulotlar sotildi. Bir kun oldin bu ko'rsatkich yuqori bo'lgan, ya'ni 5-oktabr kuni 4219,8 mln. so'mlik boshqa turdag'i kimyo mahsulotlari sotilgan. Sotuvning asosiy qismini, ya'ni 91,9 foizini kalsinasiyalangan soda mahsuloti tashkil etdi.

O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi "O'zkimyosanoat" AJ savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar savdosи bo'yicha barcha ma'lumotlarni www.uzkmyosanoat.uz rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi <https://t.me/uzkmyosanoat> va <https://www.facebook.com/uzkmyosanoat/> rasmiy sahifalari orqali olishingiz mumkin.

Mahsulotlarni yetkazib berish va ularning sifat darajasi bo'yicha taklif va e'tirozlaringiz bo'lsa, (78) 140-74-48 ishonch telefon raqamiga murojaat qilishingiz mumkin.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati